# Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida uchta yangi rezident korxonaning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi

// 26.08.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparkida-uchta-yangi-rezident-




Davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida uchta yangi rezident kompaniya - "LYUDI I CIFRI", "TEG" va "IOTA" MCHJ QKlarining ishlab chiqarish majmualari tantanali ravishda ochildi.




Marosimda Chirchiq shahri hokimi Murodjon Abdurahimov, "O‘zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov, "Ximgrad" texnopolisi vakillari hamda OAV ishtirok etdi.




Ta‘kidlash lozimki, ushbu loyihalar mamlakatimiz ichki bozori ehtiyojlarini qondirish, eksport salohiyatini oshirish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- "LYUDI I CIFRI" MCHJ QK — chakana savdo uchun stellajlar va tegishli uskunalar ishlab chiqaradi.
- "TEG" MCHJ QK —temiryo‘l tarmog‘i uchun mikroprotsessorli markazlashtirish tizimlari, shuningdek, avtomatlashtirish va telemexanika qurilmalarini ishlab chiqaradi.
- "IOTA" MCHJ QK — avtomobil konditsioner tizimlari uchun shlanglar va quvurlar ishlab chiqaruvchi korxona.


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26




Ishlab chiqarish quvvatlari Yevropaning zamonaviy uskunalari bilan jihozlangan.


Uzkimyosanoat
CHIRCHIQ
Vatan uchun, millat uchun,
MUSTAQ
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26




Ta’kidlash joiz, ushbu loyihalar doirasida 250 nafarga yaqin mahalliy aholi ish bilan ta’minlandi.

**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**